



1995-yil 10-iyundan chiqarib boshlagan

www.mt.uz / milliytiklanish2022@mail.uz

tiklanish



MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

EL ISHINI ER QILUR,
ER QADRINI EL BILUR 3

TILINI ASRAGAN –
MILLATINI ASRAYDI 2

№ 37 (1186) 2022-yil 26-oktyabr, chorshanba

O'ZIMIZGA O'ZIMIZ JABR QILAYAPMIZ! BU – JINOYAT ASLIDA!

11 oktyabr kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev raisligida mahallalarni obod qilish va aholini o'ylantirayotgan masalalarni hal etish bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida muhokama etilgan masalalar hanuzgacha qizg'in muhokama qilinayotgani bejiz emas. Unda juda ko'p muammolar haqida so'z yuritilishi barobarida "Dolzarb 40 kunlik" daraxt ekish harakati ham e'lon qilindi.

Eng asosiysi, bu davr ichida 75 million tup mevali va manzarali daraxtlar ekiladigan bo'ldi! Dunyo ekologlarining ma'lum qilishlaricha, Yer yuzida har yili 15 milliard tup daraxt turli sabablarga ko'ra kesib tashlanar, o'rniga esa 5 milliardgina nihollar ekilar ekan, xolos. Bu esa o'z-o'zidan Yer yuzi aholisiga kislorod yetmasligi oldindan ma'lum deganidir.

Davomi 2-betda

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida deputatlar dastlab «O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining faoliyati takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasini ikkinchi o'qishda muhokama qilidilar.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda davlat moliyaviy resurslarini boshqarish hamda budget mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazorati tizimini samarali yo'lga qo'yish, shu jumladan, Hisob palatasi faoliyati tomonidan amalga oshirilayotgan nazorat shakllarining ta'sirchanligi hamda samaradorligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, keyingi yillardagi o'zgarishlar asnosida qonunlar, farmon va qarorlar ijrosini nazorat qilish, davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablarining to'g'ri qo'llanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish, nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha aniqlangan

moliyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasi va ularga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish zarurati vujudga kelmoqda.

Ko'plab qonun hujjatlarida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida tushunchalar berilgan bo'lsada, davlat organlari va muassasalarida ularni amalga oshirish va nazorat qilishning aniq mexanizmlari yaratilmagan.

Davomi 2-betda



3 KAMTARIN INSON, ULUG' OLIM

1969-yili «XIX asrda O'rta Osiyo va Sharqiy Turkiston orasidagi savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalar» mavzusida diplom ishini yoqlagach, bir yilcha Toshkent shahridagi 59-maktabda xitoy tili o'qituvchisi bo'lib ishlagan.



5 ALISHER NAVOIY: IKKI TILNING MUHOKAMASI

Ona tilimizning bugungi kamolotiga hazrat Navoiy katta hissa qo'shgan. «Muhokamatu-l-lug'atayn» asari turkiy tilning ulug'ligi, malohati, boshqa tillardan afzal xususiyatlarini ko'rsatishda muhim manba sanaladi.

6 CHERCHILDAN EYNSHTEYNGACHA...

– Janob Churchill, jonga tegib ketdingiz. Agar men xotiningiz bo'lganimda siz ichayotgan qahvaga zahar qo'shib berardim...

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

HUKUMATNING 2022-2026-YILLARGA MO'LLALLANGAN DAVLAT DASTURI IJROSI BO'YICHA HISOBOTINI ESHITDIK



«Milliy tiklanish» partiyasi uchun tarbiya va ta'lim sohasi ustuvor ekanligidan kelib chiqib, dasturning «Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish» to'g'risidagi 4-yo'nalishga alohida e'tibor qaratdik. Quyidagilarga Hukumat e'tiborini qaratdik:
– bog'cha yoshidagi 75 nafar bolaga 1 nafar oliy ma'lumotli tarbiyachi to'g'ri kelmoqda. Tarbiyachilarni ko'proq o'qitish uchun qo'shimcha kvotalar ajratilishi kerak;
– bog'cha tarbiyachisi bo'lish jozibasiz, maosh juda kam. Vaholanki, tarbiyachining ishi o'qituvchilikdan og'irroq. 7 yoshgacha tarbiyada yo'l qo'yilgan xato esa o'qituvchi ishining foydasini yo'qqa chiqarishi mumkin;
– milliy tarbiya metodikasi mavjud emas. Shuning uchun ham bu masala tahlil qilinishi kerak. Maktabgacha ta'lim vazirligi huzurida ilk davrda tarbiya ilmiy-tadqiqot institutini tashkil qilish zarur;
– maktabda pedagoglarning yangi avlodini tayyorlash bo'yicha 10 yillik davlat dasturi qabul qilinishi zarur;
– «G'uncha», «Gulxan», «Tong yulduzi», «Bolalar sporti» va «Klass» bolalar nashrlari bolalarni o'qish ko'nikmasini shakllantirishda juda muhim. Xalq ta'limi vazirligi bu nashrlarni qaramog'iga olishi zarur.

@alisherQodir

LATOFATINI UNUTAYOTGAN «OJIZA»LAR 4



**YAKSHILIK QILU
YOMONLIK KUT (mi)?**
yoxud davlatdan
millionlab qarzi bor
«bechoralar» haqida
ayrim mulohazalar 4

Davlat dasturining 9 oylik ijrosi raqamlarda

2022 –yilning 9 oyida yalpi ichki mahsulotning o'sishi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,8 foizni tashkil qildi. "Yo'l xarita"larida tasdiqlangan vazifalarning ijro etilishi natijasida 1,9 million fuqaroning bandligi ta'minlandi. Shuningdek, 341 ming nafar fuqaroga ijara asosida yer, 267 mingta loyihaga 6,4 trillion so'm imtiyozli kredit va 35 mingdan ortiq ishsizlarga 112 milliard so'm subsidiya ajratildi.

2022 –2023-yillar uchun mo'ljallangan manzilli ro'yxatga asosan renovatsiya va rekonstruksiya qilinishi lozim bo'lgan jami 268 ta ko'p kvartirali uylardan 49 tasi renovatsiya va rekonstruksiya qilinib, shahar va tumanlarda eskirgan uylar o'rniga zamonaviy uy-joylar barpo etildi. 540 dan ziyod oilalarning turmush sharoiti yaxshilanishiga erishildi. Hisobot davrida 83,3 trillion so'm mablag' ijtimoiy sohaga yo'naltirildi. Bu o'tgan yilga nisbatan 30 foizga ko'p. 37,7 ming loyiha "Ochiq budget" portali doirasida g'olib deb topilib, ularga 1 trillion so'm ajratildi.



SIYOSAT 4
QALTIS XATOLARNI KECHIRMAYDI!





...do'konlar, firmalar, joylarni nomlashda adabiy til me'yorlariga amal qilinsa, o'z ona tilimiz hurmati ortadi. To'g'ri, xorijiy mehmonlar bunday yozuvlarni ko'rib, balki g'ururlanar, biroq millat haqidagi tasavvuri bunday nomlanishlardan keyin o'zgarib ketishiga hech qanday shubha yo'q.

PARLAMENTDA

(Boshlanishi 1-betda)

INSON O'ZGARMASA, JAMIYAT O'ZGARMAYDI



Fraksiya a'zosi Jahongir Abdurasulov ushbu qonun loyihasi haqida ma'lumot berar ekan, Hisob palatasi faoliyatiga doir ushbu qonun loyihasi aynan shu kabi kamchiliklarni tartibga solishga qaratilganini, budjet intizomini mustahkamlash va davlat xaridlaridagi moliyaviy huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qilishini ta'kidladi. Ahmadjon G'aniyev ham qonun loyihasiga munosabat bildirib, Hisob palatasi faoliyatini rivojlantirish, ushbu

shundagina ularning faoliyati shaffof bo'lishini, ya'ni bunday tuzilma faoliyatida to'g'ridan-to'g'ri moddiy manfaatdorlik bo'lmisligi kerakligini aytdi.

Shundan so'ng, deputatlar "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonun loyihasini muhokama qildilar. Qonun tashabbuskorlari manfaatlar to'qnashuviga ta'rif berar ekan, bu davlat tashkiloti xodimi, uning yaqin qarindoshlari va unga aloqador shaxslar o'z manfaatlari bilan fuqarolar, tashkilot yoki davlat huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelgan va kelayotgan yoxud yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat ekanini qayd etishdi.

Ta'kidlanganidek, ko'plab qonun hujjatlarida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida tushunchalar berilgan bo'lsada, davlat organlari va muassasalarida ularni amalga oshirish va nazorat qilishning aniq mexanizmlari yaratilmagan. Hatto, vakolatli organ ham belgilanmagan. Bu boradagi talablarni buzganlar qonunchilikka muvofiq javobgar bo'lishi belgilangan, ammo javobgarlik masalalari nazarda tutilmagan. Amaldagi qonunlarimizda bunday holatlarga qarshi aniq mexanizm ishlab chiqilmagan. Hatto, statistikasi ham yuritilmaydi. Bu esa davlat tashkilotlarida korrupsiyaning yanada avj olishiga, ayrim rahbarlarning yaqinlari manfaatlarini ko'zlab, davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy zarar

yetkazilishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu qonun loyihasi bilan vakolatli organlar belgilanib, uning vazifalari, davlat xizmatchilarining bu boradagi majburiyatlari va javobgarligi hamda uni tartibga solish bo'yicha aniq mexanizmlar, cheklovlar joriy qilinmoqda.

Abdumalik Akramovning ta'kidlashicha, ushbu qonun kerak va u korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Ammo deputat loyihada belgilanganidek, bunday holatlarni sodir etganlarga, ya'ni korrupsionerlarga nisbatan juda kam miqdorda – 5 yoki 10 barobar jarima belgilanayotganiga e'tiroz bildirdi. – O'zaro til birlashtirish, ko'rib ko'rmaslikka olish, shaxsiy manfaat yuzasidan rahbarni hurmat qilish, jinoyatiga sherik qilishi bugungi jamiyatimiz rivojiga to'siq bo'layotgan eng katta illatlar sanaladi. Loqaydlikdan kechmasak, yon-atrofimizda bo'layotgan voqea-hodisalarga bafarq bo'lsak, "menga nima" qabilida ish tutsak, avvalo, o'zimiz o'zgarimasak jamiyatimiz o'zgarmaydi, taraqqiyotga erisha olmaymiz. Shu ma'noda, ushbu qonun loyihasi aynan shunday illatlarga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi, – dedi fraksiya rahbari Alisher Qodirov. Ko'pchilik ovoz bilan ushbu qonun loyihasi ham qabul qilindi.

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbiri

” Abdumalik Akramov loyihada belgilanganidek, bunday holatlarni sodir etganlarga, ya'ni korrupsionerlarga nisbatan juda kam miqdorda – 5 yoki 10 barobar jarima belgilanayotganiga e'tiroz bildirdi.

tuzilmani har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozimligini ta'kidladi. Ammo deputat palata qoshida budjetdan tashqari jamg'arma tashkil etish va unga palata tomonidan tekshirishda aniqlangan kamomadlardan tushgan mablag'ning 8 foizi o'tkazilishi to'g'ri emasligini ta'kidladi. Deputat Alisher Hamroyev ham bu fikrni qo'llab-quvvatlab, Oliy nazorat organi – Hisob palatasi moliyaviy mustaqil bo'lishi kerakligini,

✓ Ma'naviyat


TILINI ASRAGAN – MILLATINI ASRAYDI

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga ham 33 yil to'ldi. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'zbek tilini rivojlantirish va takomillashtirish uchun keng imkoniyat yaratibgina qolmay, O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillarini hurmat qilinishini ta'minladi. Ya'ni, chegara bojxona postlari orqali yurtimizga kirib kelayotgan chet el fuqarolari o'zbek tilida yoki boshqa jahon tillarida bojxona deklaratsiyalarini to'ldirishlari va muloqotda bo'lishlari uchun sharoitlar yaratdi. Bugun bojxona postlarida fuqarolarga ko'rsatmalar, ma'lumotlar, xabarlar va yo'lovchi bojxona deklaratsiyalari o'zbek, rus va

ingliz tillarida yetkazilmoqda. Ammo ana shunday shart-sharoitlarga qaramay, keyingi paytlarda o'zbek tilining rivojiga nihoyatda yuzaki yondashayotganimiz ham yaqqol ko'zga tashlanib qolyapti. Masalan, ko'pchiligimiz nafaqat ko'cha-ko'yda, hatto ishxonada, ta'lim jarayonida, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda, radioeshittirish va teleko'rsatuvlarda ham o'zbek adabiy tilida gapirish o'rniga o'z shevamizda so'zlashga odatlanib borayotirmiz. Shu ma'noda, Vazirlar Mahkamasi tarkibida Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti tashkil qilindi. Bu ayrimlar o'ylaganidek, arziyas muammo emas. Ko'cha nomlarida, peshlavhalarda, atamalarining barchasida Davlat tili qonun-

qoidalariga rioya qilinsagina, aholining har bir vakili o'z nomi bilan atashni boshlaydi. Shuningdek, do'konlar, firmalar, joylarni nomlashda adabiy til me'yorlariga amal qilinsa, o'z ona tilimiz hurmati ortadi. To'g'ri, xorijiy mehmonlar bunday yozuvlarni ko'rib, balki g'ururlanar, biroq millat haqidagi tasavvuri bunday nomlanishlardan keyin o'zgarib ketishiga hech qanday shubha yo'q. Takror bo'lsa ham bugun oliy ta'lim muassasalarida «Ona tili va adabiyot», «Nutq madaniyati», «Davlat tilida ish yuritish asoslari» kabi fanlarni asosiy o'quv fanlari qatorida o'qitishni davom ettirish talab etilmoqda.

Dilnoza AZIZOVA,
partiyaning Namangan viloyati Kengashi raisi



O'ZIMIZGA O'ZIMIZ
JABR QILAYAPMIZ!
BU –
JINOYAT
ASLIDA!

Keling, aniqlik kiritaylik: o'rta yoshli bir kishi bir daqiqada 7 litrga yaqin havo yutar ekan. Bir sutkada esa 550 litr...

Xo'sh, bitta daraxt qancha kislorod chiqaradi? Olimlarning aytishicha, bitta yetilgan daraxt bir sutkada 90 litr, ya'ni, bitta daraxt bir kishi uchun kerak bo'ladigan kislorodning 14 foizini ishlab chiqaradi. Hisob-kitoblarga qaraganda, o'rta yoshli inson uchun 7 ta daraxt bo'lishi kerak.

Xo'sh, endi atrofimizga bir e'tibor beraylik! Atrofimizda 7 ta daraxtimiz bormi?! Bizni sog'lom va go'zal bo'lishimiz, aql va vakolatga to'lishimiz uchun manba bo'lgan madadkorimiz qay ahvolda?!

Demak, yonimizdagi har bir daraxtning kesilishi, har bir insonning 14 foiz umrini "o'ldirish" ekan-da! Axir bir cho'p suqsang ko'karadigan, bir hovuch don sepsang, xirmoning to'ladigan yurtda yashayapmizku! Muzli makonlar, jazirama o'lkalar havas qiladigan ma'vo emasmi, bu Vatani?! O'tgan hafta Oliy Majlis Senatida quyidagi ma'lumotlar e'lon qilindi: "Yashil makon" loyihasi doirasida aslida ekilmagan 6,2 million dona daraxt ko'chatlari hisobotlarga qo'shib yozilgan. 3,4 million donasi esa sug'orish tizimi bo'lmagan joylarga ekilgan. Shuningdek, 2,4 million dona ko'chat suvsizlik va yetarli parvarish bo'lmaganidan bahor tugamasdan nobud bo'lgan. 341 ming dona ko'chat Yerning tabiiy iqlim xususiyatlarini inobatga olmay, yaroqsiz yerlarga ekilgan. Bu dalillarni tahlil etib yuragimni vahima bosdi. Nahotki, o'zimizga o'zimiz jabr qilayotgan bo'lsak?! Va, azizlarim, umri, joni azizlarim, bir-birimizdan HAVOni qizg'anmaylik, degim keldi.

Farida BO'TAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Kuting!



...qay bir erkak yuqori lavozimga tayinlanmasin, uning ortida, albatta, bir ayol turganini, uning muvaffaqiyati ayolning ham yutug'i ekanini unutmashimiz kerak. Bu bilan ayol o'z o'rnini erkaklarga bo'shatib bersin, degan noto'g'ri fikrdan yiroqmiz. Faqat ayol va erkak o'zaro hamkorlikda oilada ham, jamiyatda ham katta natijalarga erishishi mumkinligini qayd etmoqchimiz, xolos. Bu borada arab tarixchisi Ibn Battutaning bir fikrini eslaylik: «Turk xoqonlari Farmonlarga imzo chekayotganda «sulton va uning xotinining amri bilan», deb yozgan ekanlar. Shunday ekan, rivojlanishning mumtoz modeli hali ham o'zgartani yo'q. Ya'ni, rivojlanishda qadim qadriyatlarga tayanish, zamon zaylini e'tiborga olish eng foydali tomonimizdir.

Kelgusi sonlarda

Davlat dasturining 9 oylik ijrosi raqamlarda

139

ta mehmonxona va xostellar, 181 ta turistik firmalar tashkil etildi. 7 milliondan ortiq mahalliy aholining yurtimiz bo'yab ichki sayohati tashkil etildi. Muhokamalarda so'z olgan deputatlar Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlarning ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ijobiy ishlarni e'tirof etib, ayrim bandlarning bajarilishi kechikayotganini tanqid ostiga olishdi. Xususan, tibbiyot, ta'lim, qishloq xo'jaligi tarmoqlari va aholi punktlarini suv bilan ta'minlash masalasidagi amaliy chora-tadbirlar bilan qiziqdilar. Deputat Kozim Tojiyev boshlag'ich sinf o'quvchilarini bepul o'qatlantirish tizimi joriy etilgani, buning uchun oshxonalarini xatlovdan o'tkazish vazifasi belgilanganini ta'kidlab, bu boradagi vazifalar ijrosi qay darajada ekanini bilan qiziqdi.

XALQ TA'LIMI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING

5 yillik dasturi asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazmda boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul o'qatlantirish tizimi belgilangan muddatdan oldin joriy etildi. Keyinchalik boshqa hududlarda ham bu jarayon yo'lga qo'yiladi. Bugungi kunda bepul o'qatlantirish tizimini joriy etish bilan birga, autorsing tizimi ustida ham ish olib borilmoqda.





Sardoba suv ombori yorilganda bizning ahilligimizni, birligimizni va hech qanday talafotsiz barcha mushkulotlarni yengib, Sirdaryoda bir-biridan go'zal bir qancha shaharlarni bunyod etganimizni nafaqat O'zbekiston xalqi, balki butun dunyo ko'rdi...

Kamtarin inson, Ulug' olim



Tarixga qiziqmagan kishi bo'lmas kerak. Har qanday inson hech bo'lmaganda otanasini, bobo-momolari turish-turmushidan nimalarnidir bilishni istaydi. Buning uchun u juda oddiy yo'l tutadi — ular va ularni bilganlarni so'roqqa tutadi. Olgan ma'lumotlarini ko'pincha eslab qoladi, ba'zan esa qog'ozga tushiradi. Eng eski zamonlardayoq ayrim qatlam vakillari o'tmishni bilish borasidagi intilishlaridan tashqari, o'zlaridan xotira qoldirish ilinji o'laroq o'zlariga oid voqealarni yozib borishni uyushtirgan. Bu ish bilan shug'ullanuvchi maxsus odamlar ham paydo bo'lgan va ular bitikchilar, baxshilar, tarixchilar deya atalgan. Shu tariqa tarix fani paydo bo'lgan.

fors, xitoy tillarini puxta bilgan, ular asosida bitilgan manbalar bilan ishlash qobiliyatiga ega xodimlarni bir qo'l barmoqlarining o'zida sanash mumkin edi. Buning oqibati o'laroq, qadimgi va o'rta asrlar davrlari bo'yicha shakllangan, zamona talablariga javob bera oladigan ilmiy maktablarning o'zi yo'q edi. Ilmiy maktabning oyoqqa turib, sayqallanishi uchun til omilining o'zi yetarli emasligi ham tabiiydir. Buning uchun keng fikrlaydigan, boshqalar, ayniqsa, yoshlarni ergashtira oladigan, kelajakni ko'rishga qodir, o'z ishining ustasi o'laroq tan olingan shaxs — yetakchi ham zarur. Bunday olimlarga ehtiyoj doim yuqori bo'lgani barobarida tarix fanimiz uchun ular hamisha kamchil bo'lgan. Ularsiz Tarix instituti oldiga qo'yilgan vazifalarni

ketgani, muddao sovet-xitoy munosabatlari taranglashgani sharoitida xitoyliklarning ilmiy va o'quv adabiyotlarida ochiqchasiga O'rta Osiyoning sharqiy bo'laklariga da'volariga javoban ilmiy izlanishlarni yo'lga qo'yish bo'lgani haqida yarim vahimali, yarim pichirli gaplar bo'limning o'ziga xos mavqei ham belgilab berardi. Rahmatli Bo'ribov aka umumiy rahbarlik hamda arab, fors manbalari negizidagi izlanishlarga bosh-qosh bo'lsalar, eng og'ir yo'nalish — qadimgi xitoy manbalaridagi tegishli guvohliklarni ilmiy muomalaga kiritish, tahlil qilishga yetakchilik Ahad aka zimmasida edi. Zamonaviy arab yoki fors tilini bilgan odam besh yuz yoki ming yil burun ushbu tillarda yaratilgan manbalarni o'qishi juda qiyin. Bu ishni eplaydiganlarni odatda manbashunos deymiz, ya'ni manbani o'qib, o'qiganini uqiy oladigan mutaxassis. Afsuski, oliy o'quv yurtlarimiz o'shanda ham, bugun ham bunday mutaxassislarni tayyorlashga unchalik qodir emas. Ushbu sharoitda barchasi odamning o'zi va unga bosh-qosh bo'ladigan ustoziga bog'liq bo'ladi. Qadimgi xitoychani o'qish va anglash esa, arab va fors tillaridan-da qiyin. Buning uchun Xitoyga borib maxsus tajriba oltirish taqozo etiladi.

paytlarda doktorlik himoyasidan o'tish hozirgidek oson ish emasdi. Ahad Xo'jayev mustaqil O'zbekistonning butunlay yangicha sharoitda davlat o'laroq qayta oyoqqa turishida o'zining ulushini qo'shgan insonlardandir. 1994-yildan Tashqi ishlar vazirligi «Siyosiy tahlil va istiqbolni belgilash» boshqarmasida bo'lim va boshqarma boshlig'i bo'lib ishlash oson kechmagan. 1996-yili ushbu vazirlikning Osiyo-Tinch okeani mintaqasi boshqarmasining rahbari bo'lgani, 1996 — 1999-yillari O'zbekistonning XXRdagi elchixonasida birinchi kotib, axborot va madaniy masalalar bo'yicha maslahatchi lavozimlarida faoliyat yuritgani esa, uning katta olimlikdan tashqari mohir diplomat o'laroq tan olinganiga dalil, deb ishonamiz.

tilidagi boy tarixiy ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish. Ustoz rozi bo'ldi va buning uchun u kishidan juda minnatdormiz. Vaqt — oqar daryo, deb bejiz aytilmas ekan. Endi o'ylab ko'rsak, tanishganimiz 1985-yili ustoz 43 yoshda bo'lgan ekan. Bugun esa o'zlarining qutlug' 80 yoshini qarshilamoqda. Shundan yarim asrdan ko'prog'ini ilmga, aniqlik, umuman Turkiston, ayniqsa, o'zbek xalqining boy va uzoq o'tmishini yuzaga chiqarishdek mashaqqatli ishga sarf etibdi. O'zbekistonda xitoychilik yo'nalishida fan doktorlari va nomzodlarini tayyorlagani va bu boradagi faoliyati davom etayotganining qimmatini tushungan-tushunadi, tushunmagan esa, yo'q. Eng muhimi, aynan Ahad aka Xo'jayevning xitoy manbalari ustida olib borgan uzoq yillik izchil izlanishlari o'laroq, o'zbek xalqi va davlatchiligi, Turon-Turkistonning eng qadimgi tarixiy bosqichlarining ilmiy-manbaviy poydevori yaratilmoqda, mustahkamlanmoqda. Bu og'ir va qarshiliklarga boy ishni ko'p hollarda bir o'zlarini bajarishiga to'g'ri kelgani inobatga olinasa, ustozning tarixchilik milliy maktabimiz oldidagi xolis xizmatlarining ahamiyati yaqqollashadi-qo'yadi. Ochig'ini aytadigan bo'lsak, fan doktori ko'p, til biladiganlar soni ham ortib bormoqda. Biroq o'z ishining ustasi, keng ko'lmda fikrovchi, izlanishlarini o'ta pishiq olib boruvchi ustoz o'laroq yurti va dunyoda tan olinish, zamondan qat'i nazar, ayniqsa, bugun ilm-fan uchun kerak bo'lish, o'zining mustahkam ilmiy maktabini yarata olish barobarida kamtar, kamsuqum, katta-yu kichikning hurmatiga loyiq bo'lib qolish barchaga ham nasib etavermaydi. Ahad Xo'jayev mana shunday inson va ulug' olimdir.

978-YILDAN «O'RTA OSIYO VA XITOIY TARIXIY-MADANIY ALOQALARI» BO'LIMIDA ISHLAY BOSHLAGAN AHAD AKA XO'JAYEV 1988 — 1994-YILLARDA UNGA BOSH BO'LGAN.

Boshqa kasb-korlarda bo'lgani kabi tarixchilik ham yengil yumush emas. Shunchaki qiziqishning o'zi ham yetarli emas. Bir qancha tillarni pishiq egallagan, ilmiy tafakkuri bor, millat va yurtini qattiq sevgan kishigina zamonaviy tarixchi martabasiga da'vogarlik qilishi mumkin, deb qattiq ishonamiz. Aks holda, tarixchilikning tuynugidan mo'ralamasa ham bo'ladi. O'zbek xalqi va davlati bir necha ming yillik o'tmishga egaligi yaxshi ma'lum. Bunday ulkan tarixiy davrni biz asosan yozma manbalar negizida o'rganamiz. Ular esa turli — o'zbek, fors, arab, xitoy, sanskrit, urdu, arman, gurg'l, sug'd, suryoniy, yunon, lotin, rus singari tillarda yozib qoldirilgan. Hech bo'lmaganda, ulardan bittasini bilmasdan turib to'laqonli ilmiy izlanishlar olib borib bo'lmaydi. Agar asosiy ishi tarixchilik bo'lmish ilmiy muassasa faoliyati nuqtai nazaridan aytadigan bo'lsak, mazkur tillar bo'yicha yetuk mutaxassislarsiz hech narsaga erishib bo'lmagligi ayonlashadi-qoladi... 2019-yil noyabr oyida Fanlar akademiyasi (FA)ning Tarix instituti direktorligiga tayinlaganimizdan keyin bizni hayratga solgan muammolardan biri ham xuddi shu omil bilan bog'liq bo'lgandi. Arab,

bajarish mumkin emasligini biz yaxshi anglardik. Qisqasi, o'tmishimizning kattagina bo'lari, xususan, qadimgi davrini o'rganishda o'ta qimmatli sanalmish xitoy manbalarining sirini ochishda kimga suyanish kerakligi masalasida kaminada qiyinchilik tug'ilgan. Ahad aka Xo'jayev bilan 1985-yilning kuzida — Toshkent davlat universitetining sharq tillari fakultetini bitirib, Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutiga ishga kirganimizda tanishganmiz. Xitoychilik bo'yicha eng yetuk va yetakchi olim o'laroq shuhrat qozongan Ahad Xo'jayev kamtar, bosiq, madaniyatli, boshqalarni eshitish qobiliyati borligi bilan ajralib turardi. U kishining o'z ishining ustasi bo'lgani borasida o'shanda ham, keyingi yillarda — bugungacha ham hech kimda, hech qachon ikkilanish tug'ilganini bilmaymiz. Ustozga o'ta sinchkovlik, qattiq to'zim bilan izlanish olib borish xosligini barcha biladi. Ko'p ham o'tmay, ustozimiz Bo'ribov Ahmedov boshchilik qilayotgan «O'rta Osiyo va Xitoy tarixiy-madaniy aloqalari» bo'limiga o'tdik. O'sha kezlarda ushbu bo'limni 1978-yili SSSR FA Sharqshunoslik instituti direktori E.Primakovning o'zi Moskvadan kelib ochib

1969-yili «XIX asrda O'rta Osiyo va Sharqiy Turkiston orasidagi savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalar» mavzusida diplom ishini yoqlagach, bir yilcha Toshkent shahridagi 59-maktabda xitoy tili o'qituvchisi bo'lib ishlagan. 1970 — 1973-yillarda aspiranturani Moskvada o'tab, 1973-yil 14-dekabrda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan domlarning keyingi ilmiy umr yo'li FA Sharqshunoslik instituti bilan bog'liq bo'lgan. 1978-yildan «O'rta Osiyo va Xitoy tarixiy-madaniy aloqalari» bo'limida ishlay boshlagan Ahad aka Xo'jayev 1988 — 1994-yillarda unga bosh bo'lgan. 1990-yili u «Sin imperiyasi bilan Jung'or va Yorkend xonliklari munosabatlari (1700-1760)» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qilganini ham yaxshi eslayman. U

1996-yil O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutida Geosiyosat va xalqaro munosabatlari bo'limi boshlig'i bo'lib ishlagan domla 2007-yili yana FA Sharqshunoslik bo'limi boshlig'i bo'lib qolgan instituti — o'z uyidek bo'lib qolgan ilmiy dargohga qaytgan. Bu, albatta, institut, umuman tarix fanimizning katta yutug'i bo'lgan. Qizig'i, bunday yo'l o'zimizning ham boshimizdan o'tgan. 1997 — 2019-yillarda turli davlat idoralarida mas'ul lavozimlarni egallab, 2019-yil oxirlarida Fanlar akademiyasiga — Tarix institutiga qaytdik. Tarixchilik milliy maktabimizni yaratish, o'zbek xalqi va davlatining haqqoniy tarixini ilmiy asosda, eng avvalo, birlamchi manbalar orqali tiklashdek o'ta mas'uliyatli va sharafli vazifalarni qo'rqmasdan va ishonch bilan bajarish uchun o'z ishining ustasi bo'lgan, halol, zabardast va fidoyi mutaxassislar zarurligini boshdan o'qiyotgan tushunganmiz. Shuning uchun ham birinchilardan bo'lib ustozimiz Ahad aka Xo'jayevga murojaat qilib, Tarix instituti bosh ilmiy xodimi lavozimiga taklif qildik. Maqsadimizni ham tushuntirdik — institutimizda rosmansa xitoychilik ilmiy yo'nalishini tashkil etish, xitoy

uzida hamisha to'ylar bo'lsin, dasturxonni hamisha to'kin, sog'lik salomatlikda, baxtu saodatda, farovonlikda yashasin. Qo'lingizdan kelsa bizga yordam bering, bizni duo qiling, qo'lingizdan kelmasa o'zimizga qo'yib bering, biz o'zimiz bu ishlarni hammasini a'lo darajada oxiriga yetkazamiz, bizdan norizo bo'lgan biror odam qolmaydi. Xudo xohlasa hammani rozi qilamiz, talafot ko'rganlarning uyularida to'ylar o'tkazamiz. So'zimizning oxirida yana barchaga sog'lik salomatlik tilab qolaman. Biz hasharga, do'stlar oldiga shoshmoqdamiz. Omon bo'linglar!



Azamat ZIYO, Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori, tarix fanlari doktori, professor

✓ Aks-sado

EL ISHINI ER QILUR, ER QADRINI EL BILUR



Muhammad ISMOIL, shoir, Sirdaryo viloyati ijtimoiy rivojlanish komissiyasi raisi

Sirdaryoliklar irodasi metinday mustahkam, har qanday balo-qazoga bir tan-u bir jon, aka-uka, do'st, birodar bo'lib, qo'lni qo'lga, dilni dilga berib, kuchni kuchga qo'shib, yiqilmas qo'rg'on, yengilmas qo'shin, buzilmas qoya bo'lib, bir-birini qo'llab-quvvatlovchi, bir-biriga tayanch, suyanch bo'lguvchi va har qanday sinovlarni yenguvchi, g'alaba qozonuvchi, zafar bayrog'ini, albatta, ko'targuvchi xalqdir. Xudoyim, sirdaryoliklarga sinov ustiga sinov bermoqda. Sardoba suv ombori yorilganda bizning

ahilligimizni, birligimizni va hech qanday talafotsiz barcha mushkulotlarni yengib, Sirdaryoda bir-biridan go'zal bir qancha shaharlarni bunyod etganimizni nafaqat O'zbekiston xalqi, balki butun dunyo ko'rdi va sirdaryoliklarning ahilligiga, bunyodkorlik kuchiga tan berdi. Yaqinda Sirdaryodagi harbiy bazada chiqqan yong'in barcha sirdaryoliklarni yana birlashtirdi. Yana barcha kuch safarbarlikka jalb etildi. Talafot ko'rgan bironta xonadon e'tiborsiz qolmadi. Jabr chekkanlarning hamma hammasining holidan xabar olindi va hamma xavf-xatar bartaraf etildi. Shifoxonadagi bemorlar yo'qlandi va zarur

dori-darmon tezda yetkazildi, oliy toifadagi shifokorlar jalb etildi. Oynalar, romlar, shiferlar, televizorlar o'rnatildi, devorlar tiklandi, singan idish-tovoqlar o'rni qoplandi, kerak bo'lsa ko'rupa-to'shaklar yetkazib berildi. Viloyatning katta-yu kichik rahbarlari, shifokorlari, quruvchilari hammasi shu yerda. 24 soat bedor, nimaiki xizmat bo'lsa, "labbay" deb turishibdi. Hech kim hech joyga ketgani yo'q. Umid qilamizki, yana bir-ikki kundan keyin tortilgan talafotlar, ko'rilgan zararlar to'laigicha qoplanadi, devorlar tiklanadi, bemorlar sog'ayadi, xastalar tuzaladi, aybdorlar jazolanadi, hayot avvalgidey o'z iziga tushadi

va osoyishtalik yana bir maromda davom etadi. Qizig'i shundaki, vahima ko'targanlar jabr chekkanlar emas, aksincha, umuman talafot ko'rmagan va voqeaga guvoh bo'lmaganlardir. O'rtoqlar, birovning boshiga ish tushganda paytdan foydalanib malomat va tuhmat toshini otmang, birovning ustidan kulmang, birovni yomonlamang. Qo'lingizdan kelsa yordam qo'lni cho'zing, hamdard bo'ling, yelkadosh bo'ling, do'st bo'ling. Haqiqiy insoniylik mana shu. Biz, bu kunlar boshiga tushishini hatto dushmanimizga ham ravo ko'rmaymiz. Iloho, ulug' Sirdaryo xalqining boshi omon bo'lsin, buyuk o'zbek xalqining

uzida hamisha to'ylar bo'lsin, dasturxonni hamisha to'kin, sog'lik salomatlikda, baxtu saodatda, farovonlikda yashasin. Qo'lingizdan kelsa bizga yordam bering, bizni duo qiling, qo'lingizdan kelmasa o'zimizga qo'yib bering, biz o'zimiz bu ishlarni hammasini a'lo darajada oxiriga yetkazamiz, bizdan norizo bo'lgan biror odam qolmaydi. Xudo xohlasa hammani rozi qilamiz, talafot ko'rganlarning uyularida to'ylar o'tkazamiz. So'zimizning oxirida yana barchaga sog'lik salomatlik tilab qolaman. Biz hasharga, do'stlar oldiga shoshmoqdamiz. Omon bo'linglar!

«Nega unday qilyapsiz? Qarzдорligingizni to'langda, uyingizni nomingizga o'tkazing» deb iltimos qildim. «Xo'p» dedi-yu yana jimib ketdi. Yaqinda oyligimni berishmadi. MIB barcha mol-mulkim va daromadimga taqiy qo'yibdi.

MUSHOHADA UCHUN



YAXSHILIK QILU YOMONLIK KUT (mi)?

yo'xud davlatdan millionlab qarzi bor «BECHORALAR» haqida ayrim mulohazalar

O'zbekdek jonso'z millat bo'lmasa kerak. Lekin kezi kelganda ayni shu o'zbekning beg'am, bee'tiborligi (o'zim ham g'irt o'zbekman) «yaxshilikning javobi yaxshilik» iborasini yo'qqa chiqaradi. Ayrim yurtdoshlarimizning boqibeg'amligiga ham hayron qolmay iloj yo'q.

Eski bir do'stim yozayapti: «Toshkentda doimiy ro'yxatga qo'yish (propiska) yopiqlik bo'lgan paytlari bir tanishim nomimga uy olib turishimni iltimos qilgan edi. Yordamim tekkanidan mamnun bo'lib, rozi bo'ldim. Lekin 10 yildan oshdi hamki, o'sha tanishim uyni o'z nomiga o'tkazib olay demaydi. Necha marotaba «Toshkentga doimiy ro'yxatga qo'yishga ruxsat berildiku, endi nomingizga o'tkazib oling», dedim. «Xo'p» deydi-yu amaliy harakatlardan darak yo'q.

Yaqinda uyimga suddan xat keldi. Issiq suvdan falon million qarz, ustiga anchagina penya, davlat bojlari bilan ajrim chiqarib yuborilirdi. Keyin yana soliqdan, suvdan, JEKdan xabarnomalar keldi.

Ikkitasi suddan oshib, MIB (Majburiy ijro byuro'si)gayam o'tib ketibdi. Bu xabarnomalarini ancha vaqtgacha o'sha uy manziliga jo'natishgan. Natija bo'lavermagach, o'zim yashaydigan joyga jo'natishibdi.

Bu safar tanishimga telefon qilib: «Nega unday qilyapsiz? Qarzдорligingizni to'langda, uyingizni nomingizga o'tkazing» deb iltimos qildim. «Xo'p» dedi-yu yana jimib ketdi. Yaqinda oyligimni berishmadi. MIB barcha mol-mulkim va daromadimga taqiy qo'yibdi. O'sha tanishimning to'lashga qurbi yetmaydi, deya olmayman. Bir necha mara chet ellarga borib kelishdi, dang'llama to'yalar qilishdi, mashinalarda yurishadi...

Lekin nega o'z'lari sarflagan kommunallarga pul to'lashga hafsala qilmayotganligini tushunolmay, xunobim ortayapti. O'zimcha «Tez qarzni to'lamasangiz, keyin nomingizga o'tkazib bermoyman» deb po'pisa ham qilib ko'rdim. «Tilxat» yozib bergansiz, uyda hech qanaqa haqqingiz yo'q» deb yuzimga

sapchidi. Juda-juda xafa bo'ldim...».

Buni o'qib, o'ylab qoldim. O'sha mulk egasi o'z uyiga jiddiy xavf tug'dirayotgani tushunarli. Buning uchun boplab jazolab, aqlini kiritib qo'ysa ham bo'ladi. Lekin o'zbekchilik, andisha qilasin. Chunki ertaga o'sha odam bu jazo o'z loqaydligim, mas'uliyatsizligim uchun berildi, demaydi-da, «falconchi, uyimni tortib olib, insofsizlik qildi», deya jar soladi».

Shu o'rinda masalaning boshqa tomoniga e'tibor qaratmoqchiman. Ko'pchiligimizda kommunal to'lovlarni davlat undiradi, chiroq, suv, gaz pullari davlatga foyda, degan tushuncha shakllangan. Aslo unday emas. To'g'ri, bunday tashkilotlarning ko'pchiligi davlat unitar korxonalaridir. Lekin ular o'z xarajatlari o'zlari qoplashlari kerak. Foyda haqida gap ketmayapti - chunki ularning birortasi foyda bilan ishlamaydi. Qolaversa, bizning bu xizmatlardan foydalanishimiz ham davlat uchun faqat zarar. Masalan: 1 kilovatt elektr uchun 295 so'm to'laysiz. Lekin biz ishlatgan 1 kilovatt uchun davlat

o'sha korxonaga taxminan 300 so'm dotatsiya beradi. Sovuq suvdayam xuddi shunaga - iste'molchi bir litr uchun 40 tiyin to'laydi (aniqrog'i, ayrimlarimiz shuniyam to'lamaymiz). Davlat bu summa qoplamasligi uchun unga ham dotatsiya beradi.

Ya'ni, biz qancha ko'p ishlatsak, aslida zarar miqdori shuncha ortib ketaveradi. Biz esa o'sha belgilangan arzon narxniyam to'lamay, qarzga botishni xush ko'ramiz. Bilaman, darrov kommunal ta'minot abgorligi, joylarda svet-gaz yo'qligi, davlat tabiiy boyliklardan milliardlab foydani cho'ntakka urayotgani haqida bong urib, suhbat mavzusini bahsga burasin. To'g'ri, davlat tabiiy boyliklarga egalik qiladi. Ammo o'sha gaz, suvni qayerdandir qazib olib, elektr energiyasini ishlab chiqarib uyimizga yetkazib berish uchun ham ma'lum xarajatlar talab qilinadiku. Aslida hozir ta'minot muammolari haqida emas, aynan ishlatilgan, ishlatib bo'lingan, lekin puli to'lanmay qolayotgan kommunal xizmatlar haqida gap ketyapti. Vaholanki,

birortamiz pul to'lamaganimiz uchun telefon yoki internet o'chsa, hayratda qolmaymiz, e'tiroz bildirmaymizu, kommunal to'lovlarga kelganda «davlat kutib turaveradi» qabilida ish tutamiz.

P.S.: Ushbu fikrlardan keyin meni xalqqa emas, davlatga tarafdoshlikda ayblaydigan to'da paydo bo'lishiga shubham yo'q. Agar haqiqiy muhojir odam, nogiron yoki yetim to'lay olmasa, uni tushunish mumkin. Biroq imkonni yetsa-da, hashamdor uy-joyi uchun kommunal qarzlarni to'lamayotganlarga nisbatan aslo murosra bo'lmasligi kerak degan fikrdaman.



Abror ZOHIĐOV

Mulohaza



Latofatini unutayotgan «OJIZA»LAR

O'zbekiston Innovatsion rivojlanish vazirligining xabar berishicha, joriy yilning avgust oyi holatiga ko'ra, dunyo aholisining 63 foizi internetdan foydalanadi. 4,65 mlrd kishi esa ijtimoiy tarmoqlarda faol. Statista.com saytining ma'lumotiga ko'ra, dunyo aholisining 2 milliard WhatsApp, 988 mln Facebook Messenger, 550 mln kishi esa Telegramdan foydalanarkan.

Yana bir ma'lumotnomada o'zbekistonliklarning qariyb 70 foizi internet foydalanuvchisi ekan, 18,3 foizi esa ijtimoiy tarmoqlarning ashaddiy muxlisi ekan qayd etilgan. Shu o'rinda, eng ommabop sanalagan messengerlar - WhatsApp foydalanuvchilarning 46,1 foizini, Instagram obunachilarining esa 34,4 foizini xotin-qizlar tashkil etayotganini ta'kidlash joiz.

Tabiiyki, ayrim kasb egalariga ijtimoiy tarmoqni kuzatib borish va faol bo'lishi kasbiy ehtiyoj sanaladi. Ammo maqsadsiz ijtimoiy makonda umrin o'tkazayotgan yoshlar haqida gap ketganda ularning ertangi kuni kishini xavotirga solishi tabii, albatta. Ayniqsa, ayrim opa-singillarimizning birgina Instragramdagi faoliyati bilan tanishib, yoqa ushlaysan.

Turli haqoratli «otvet»lari, dahanaki janjallarni aytmay qo'ya qolaylik. Achinarlisi, o'zlaridan «ko'cha qizi»ni yasab olganlarni ko'rib, eshitib, nahotki, jamiyatimiz shu darajaga borib qoldi, deb yuborasan. Va, beixtiyor balki to'qlik sizga shu qadar jur'at bergandir, lekin nima bo'lganda ham o'zbek ayoli ekanligingizni unutmag, deging keladi. Ammo ularga To'maris, Uveysiy, Nodirabegim, Bibixonim, Zulfiya, Saida Zunnunova, Hadicha Sulaymonovalarning

ayollik latofati-yu ibo-hayosi haqida so'zlay boshlashingiz bilan ular nazdidagi bu «ertak»ka shu zahotiyog nuqta qo'yiladi. «Sevimli» telekanalining «Zirapcha» teleoyihasiga qamrab olingan xotin-qizlar hayoti bilan tanisha turib esa yana bir haqiqatni anglagandek bo'ldim. Ana shunday xarakterli qizlarni ayrim nomiga nomunosib otalar, erlar, bir so'z bilan aytganda «erkak»lar tarbiyalayapti. Aniqrog'i, ularning mas'uliyatsizligi, o'zining kim ekanligini unutayotganligi ayrim o'zbek xotin-qizlarini shu kuyga tushiryapti.

Qayd etish joizki, oramizda shunday ayollar borki, turmush tashvishlari, hayot zarbalari ularning husni, sog'lig'i yoki latofatiga chang solgan bo'lishi mumkin, lekin or-nomusi, g'ururiga, ya'ni ma'naviy dunyosiga daxl qilolmagan. Ulardagi iroda, kuch va andishani hech bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Shunchaki, ularga qarab tahsin o'qiydiz, xolos. Bunday ayollar ezilib yashayotgan, bir shirin so'z, mehr-e'tiborga muhoj bo'lishi mumkin. Ammo ular haqoratli, uyatsiz so'zlar bilan o'z tilini bulg'amagan.

Bir onaxonni bilaman, u kishi har safar har xil joyda aniqrog'i, gohi bozor, gohi ko'cha-kuyda turli ko'katlar, rayhon, o'smalar sotadi. Rumiy hazratlari, Alisher Navoiy, Bobur va Jomiy g'azallarini xirgoyi qilib o'tiradigan bu onaxonga e'tibor bermagan kishi bu xirgoyining g'azal ekaniga tushunmaydi. Eng qizig'i, onaxon bir g'azalni takrorlamaydi... Kun uzog'i biror narsa sotolmasa-da, so'kinmaydi, huda-behuda birovi haqorat qilmaydi. Endi biroq tarixga yuzlansak: xalqimiz boshidan o'tgan «qora kunlar»da

ham, beshikdagi, qornidagi, quchog'idagi norasidasi bilan qolgan, kamiga erkaklar ishiga safarbar qilingan vaqtlarda ham onalarimiz o'z qadr-qimmatini, sha'nini asragan...

Ayni jamiyatdagi ana shunday illatga yo'liqqanlarni ko'rib, birgina xulosa qilish mumkin. Bugungi tarbiya tizimi yana bir bor bolani ona qornidayoq tarbiyalash kerakligini uqtiryapti. Buning uchun esa shubhasizki, avvalo, onani tarbiyalash talab etiladi. Bu tarbiya halqasida otalar, qo'ni-qo'shni, yaqinlarning ham ishtiroki bor. Ammo turli chirklin illatlardan toza kelajakka da'vo qiladigan har qanday millat, avvalo Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Beruniy singari avlodlarni dunyoga keltirib, tarbiyalaydigan bo'lajak ONAlarning ma'naviy sog'lomligiga jiddiy e'tibor qaratis zarur. Islom e'tiqodiga ko'ra, insonning moddiy borlig'i ma'naviy borlig'idan ustun bo'lganda barcha fazilatlar yo'llari berkilir ekan. Natijada yuqorida ta'kidlangan illatlar jamiyatda birin-ketin ildiz otaveradi. Qarabsizki, uncha uzoq bo'lmagan muddatda biz yangi dunyo yaratishiga ishonch bildirayotgan o'smirimiz milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan axloqsizliklarni oddiy hol deb qabul qila boshlaydilar. Eng yomoni, yakunda biz intilayotgan ma'naviy barkamol avlod tarbiyasi xavf ostida qoladi...



Mahbuba KARIMOVA, «Milliy tiklanish» muxbiri

Davlat dasturining 9 oylik ijrosi raqamlarda

69,3

mingdan ziyod yangi savdo va servis obyektlari ishga tushirildi, 6,1 trillion so'mlik 41 ta yirik savdo markazi, 377 milliard so'mlik 15 ta hududiy logistika markazlari, yirik tuman (shahar)-lar hamda chegaraoldi hududlarda zamonaviy savdo markazlari, 254 ta markaziy ko'chalarda 10,4 mingta yangi savdo-servis obyektlarini tashkil etish choralari ko'rilayotir. Hisobot davrida 2022-2023-o'quv yili uchun 296 nomdagi yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblari yaratildi.



«YASHIL MAKON» UMUMMILLIY LOYIHASI DOIRASIDA

126,4

million mevali hamda manzarali daraxt va butalarning ko'chatlari ekildi, kuz mavsumida yana 75 million ko'chat hamda qalamchalar ekish rejalashtirilgan.

SIYOSAT QALITIS XATOLARINI KECHIRIMAYDI!

Siyosatda xatolar kechirilmaydi. Demokratik tamoyillar qadriyatga aylangani e'tirof etiladigan g'arb mamlakatlari, xususan, Yevropaning aksariyat mamlakatlarida mazkur «an'ana»ga qat'iy amal qilinadi.

Buyuk Britaniya Bosh vaziri Liz Trassing 20-oktyabrda o'z iste'fosini e'lon qilgani ortidan muhokamalar tinmayapti. Yaqindagina, aniqrog'i 6-sentyabrda Boris Jonson o'rniga saylangan amaldor xonim Yevropa tarixiga eng qisqa muddat (45 kun) faoliyat olib borgan «antirekord»chi bosh vazir sifatida muhurlandi. Mamlakat tarixida ham ayni holat kuzatilmagan. Uning iste'fosi Buyuk Britaniyada uch yil ichida to'rtinchi bosh vazir saylanishini anglatadi. Liz Trass hamda Moliya vaziri Kvarteng Kvazi tomonidan milliy iqtisodiyotni uzoq yillik turg'unlikdan olib chiqish maqsadida taqdim etilgan soliqlarni keskin kamaytirish va boshqa choralarni o'z ichiga olgan iqtisodiy rivojlanish rejasining salbiy oqibatlari natijasida Britaniya moliyaviy bozorlari «cho'kib», funt sterling keskin qadrsizlanishi va bundan norozi bo'lgan yuzdan ortiq deputatlarning ishonchsizlik votumi o'tkazish to'g'risidagi «dag'-dag'alari» iste'foga asosiy sabab sifatida ko'rsatilmoqda.

Fransiya prezidenti Emmanuel Makron ushbu holatga munosabat bildirar ekan «Bu biz uchun ham, Yevropa uchun ham yaxshi», deb ta'kidlagan holda Liz Trassing iste'fosi ortidan Buyuk Britaniya yana barqarorlikka erishib, tez fursatda oldinga siljishiga ishonch bildirdi. Gollandiya bosh vaziri Mark



Abu Muslim USMANOV, partiya Markaziy kengashi sektor mudiri

Ryutte Liz Trass bilan ko'p qirralarda hamfikr bo'lgani, keyingi saylanadigan hamkasbi bilan ham ishlashga tayyorligini ma'lum qildi.

Ispaniya bosh vaziri Pedro Sanchez «Hozirgi iqtisodiy inqiroz bilan kurashishda soliqlarni pasaytiruvchi va ijtimoiy ta'minot siyosatini to'xtatuvchi bunday eskicha yondashuvlarning oqibati ana shunday bo'lishini» ta'kidlab, Trassing iste'fosini uning fiskal siyosatini tanqid qilish va shu bilan birga o'zining so'l siyosiy qarashlarini naqadar to'g'ri bo'lganligini yoqlash orqali izohladi.

Yevropa parlamenti prezidenti Roberta Metsola Yevropa Ittifoqining sobiq a'zosi bilan savdo-iqtisodiy, fan-texnologiya va xavfsizlik yo'nalishlarida sherik sifatida hamkorlik aloqalarini davom ettirishni intilqlik bilan kutayotganini, Yevropa Parlamenti Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniya qo'shma parlament assambleyasi bilan ishlashda davom etishi kerakligini bildirib, «mavjud beqarorlik keyingi bosh vazir bilan hal qilinishiga umid qilayotganligini» ta'kidladi.

Umuman olganda, G'arb siyosati yuz bergan kichik bir siyosiy o'zgarish nafaqat mintaqaviy, balki global ta'sirga egaligi bilan, shu bilan birga, porloq istiqbolga erishish istagida bo'lgan barcha siyosatshilar jarayonlardan muntazam xabardor bo'lib «soatlarini doimo to'g'rilab yurishlari» lozimligi bilan xarakterlanadi.



AZIZ NESIN

TILINGNI TIY!

U 1915-yili tug'ildi. Uyida yig'lagani qo'yishmadi. Onasi qo'lini bigiz qilib tahdid qildi:

– Ovozini o'chir!
Kulish ham, yig'lash ham mumkin emasdi. Otasi ham zug'um qilardi:

– Jim bo'!
A g a r u y d a mehmonlar bo'lsa, uni oghlantirishardi:

– Jimgina o'tir, shovqin solma!
Agar onasi uyda yolg'iz qolsa, qulog'iga quyardi:

– Baqirma, bir pasgina tinchlik bo'lsin!
Shu tariqa u yetti yoshga to'ldi.

U maktabga qatnay boshladi. Dars paytida endi og'iz ochgan ham ediki, muallim o'shqirib qoldi:

– Gaplashma!
U n i d o s k a g a chaqirishganda doimo uqtirishardi:

– Sendan nimani so'rashsa, faqat shu haqda gapir. Ortiqcha javrama.

Shu tariqa o'n ikki yoshga to'ldi.

U o'rta maktabga qatnay boshladi. Endi gapirmoqchi edi, og'ziga urishdi:

– Sendan so'rashayotgani yo'q. Direktor unga «Tilni tiygan boy bo'lar» degan maqolni eslatib qo'ydi.

Turk tili muallimi shunday dedi:

– Ikki marta eshitib, bir marta gapir. Odamning ikkita qulog'i, bitta og'zi bor.

– Jim bo'!
– Ovozini o'chir!
– Javrama!
Shu tariqa o'n besh yoshga to'lib qoldi.

U litseyga qatnay boshladi. Birinchi eshitgan gapi shu bo'ldi:

– Gapirgandan ko'ra jim o'tirgan yaxshi!
– Ko'p javrama!
– Og'zingni yum!
– Jim bo'!

Shu tariqa o'n to'qqiz yoshga to'ldi.

U universitetga o'qishga kirdi. Uyda shunday nasihat qilishdi:

– Kattalar gapirganda kichiklar jimgina quloq soladilar.

Onasi tayinladi:

– So'z – kattadan, suv – kichikdan.

Professor bir kuni shunday dedi:

– Tilingni tiyib yur!

Shu tariqa yigirma uch yoshga to'ldi.

Harbiy xizmatga chaqirildi. Bo'linma komandiri buyurdi:

– Jim bo', itvachchal Serjant:

– Javrashni bas qil! Kapitan:

– Og'zingni ochma!

Uni mirshabxonaga chaqirishdi:

– Sendan so'ralayotgani yo'q!
Komissar do'q urdi:

– Jim!

U ishga kirdi. O'rtoqlari barmoqlarini og'ziga bosib shivirlashdi:

– Tss!
– Xudo haqqi, og'zingni yum! Boshingga bir baloni orttirib olma. Ehtiyot bo'!

Boshliqlar oghlantirib qo'ydi:

– Har narsaga burningni tiqma!
– Buning senga dahli yo'q!

– Nima ishing bor?
– Aralashma!

Uylandi. Xotini tayinladi:

– Sendan iltimos, har baloga burningni suqma!
Farzandlar tug'ilib, voyaga yetishdi. Ular aytishdi:

– Ota, bu ishga aqling yetmaydi. Aralashib o'tirma!

Bu odam – qisman men, qisman siz, qisman hamimiz!

Rivoyat qilishlaricha, o'tmishda xotinlar pishirayotgan ovqatga erkaklarning tilini qirgib qo'yadigan bir og'u qo'shib qo'yarmish. Bizning yemishimizga ham shunaqa og'u qo'shilganga o'xshaydi.

Bir qarab ko'ringchi, tilingiz bormikin? Biz tilimizni yutib qo'yganimiz! Og'zimiz boru ammo tilimiz yo'q.

Mana endi o'sha qisman menga, qisman sizga o'xshaydigan odam so'z erkinligini talab qilib yuribdi. Uning gapirgisi kelyapti.

A m m o u n g a buyurilyapti:

– Tilingni tiy!
Mening unga shunday degim keladi:

– Gapir! Gapir! Gapirsang-chi! Ammo nima deysan? Qanday gapirasan? Tilimiz bormi o'zi?..

Shodmon OTABEK tarjimai.



Alisher Navoiy:

IKKI TILNING

muhoqamasi

Ona tilimizning bugungi kamolotiga hazrat Navoiy katta hissa qo'shgan. «Muhokamatu-l-lug'atayn» asari turkiy tiling ulug'ligi, malohati, boshqa tillardan afzal xususiyatlarini ko'rsatishda muhim manba sanaladi.

va irqshunoslik fanlari nuqtai nazariga ham qaysidir ma'noda mos keladi. Ilmiy nazariyaga ko'ra, dunyo aholisining 90 foizdan ortiqrog'ini yevropoid, mongoloid va negroid irqi vakillari tashkil qiladi.

tilda ularning jinsi, yoshi, hajmi va boshqa xususiyatlariga qarab farqlanadi. Navoiy fikricha, turkiy tilda to'ng'izning erkagini «qobon», urg'ochisini «megajin», bolasini «cho'rp'a» deyishadi. Shuningdek, o'rdakning erkagini «so'na», modasini «burchin» deyishadi. Forschada esa bu qush birgina «murg'obi» so'zi bilan ifodalangan. Shuningdek, turkiy tilda otni (forscha asp) ham turli nomlar bilan atalgan (qulun, toy, arg'umoq, to'bichoq, yobi, g'o'nan, do'nan, to'lan, chirga, langa).

BETAKROR YUZTA SO'Z

Shundan so'ng Navoiy e'tiborni bevosita turkiy va forsiy tillar muhoqamasiga qaratadi. Turkiy elatlarning sofdilligi va o'tkir zehni, forsiylarning bilim va idrokini e'tirof etadi. Ushbu asardan ma'lum bo'lishicha, Navoiy yashagan davrda turkiy qavm vakillarining katta-yu kichigi fors tilidan xabardor bo'lishgan, biroq forsiylar turkiy tilni deyarli bilishmagan.

Garchi o'sha davrda forsiy til mavqe jihatidan ustun bo'lsada, turkiy tiling imkoniyatlari ancha keng bo'lgan. Navoiy bunga juda ko'p misollar keltiradi. Jumladan, ulug' mutafakkir turkiy tildagi yuzta fe'l'ni keltirib o'tadiki, ularni forsiyda ifodalash imkoni bo'lmagan.

But fe'llarning aksariyati zamonaviy tilimizda keng ishlatiladi. Masalan, quruqshamoq, ixranmoq, aylanmoq, ovunmoq, qiynamoq, qo'zg'almoq, sovrulmoq, chayqalmoq, qizganmoq, siylanmoq, tanlamoq, qimirlamoq, sig'inmoq, yalinmoq, indamoq, sipqormoq, chidamoq, tuzmoq, qadamoq, bichmoq, ko'ndirmoq va hokazo. Forsiy tilda bu fe'llar ma'nosini ifodalash uchun bir qancha so'z yoki arabiy lafzlardan foydalanish talab etiladi.

Shuningdek, Navoiy birgina yig'lamoq fe'lining tilimizda bir qancha shakli (siqtamoq, yig'lamsinmoq, ingramoq, singarmoq, o'kirmoq) borligini aytib, ularning har biriga she'riy misollar keltiradi. Shuningdek, shoir qovoq (ko'z va qosh orasi), chaqmoq (chaqin), ildirim (momoqaldiroq), meng (xol) singari so'zlarning ham forsiy muqobilini yo'qligini aytadi.

Turkiy tilda qarindoshlar nomi ham xilma-xil. Masalan, turkiy tildagi og'a va ini (aka-uka) forschada «birodar», egachi va singil (opa-singil) «hohar» deyiladi.

Yovvoyi va xonaki hayvonlarni nomlari turkiy

FORSIYGA HAM HURMATI BUYUK

Navoiy tildagi bu tafovutlar haqida so'z yuritarkan, o'z tili qolib o'zga tilni afzal ko'ruvchi shoiru fozilarga qarata «turk tiling ulug'ligi shuncha dalillar bilan isbot qilingan ekan, xalqimiz orasida paydo bo'lgan ziyolilar, ijodkorlar salohiyat va imkoniyatini o'z tillari turib, o'zga til bilan bayon qilishimasa, begona tillardan foydalanishmasa yaxshi bo'lardi», deya ularga dashnom bergan bo'ladi.

Shoir ulg'aygani sari turkiy tiling og'zalligi, rang-barangligi, boy va betakrorligi, kengligi va chuqurligini anglab borgan. Shoir kamolga yetgach, turkiy tilda go'zal she'ru dostonlar, g'azal va qasidalar, purma'no risolalar yaratdi.

Navoiy turkiy va forsiy tilni bir-biri ila muqoyasa qilarkan, aslo bir tomonlama fikr yuritmaydi. U forsiy tilda ijod qilgan Firdavsiy, Dehlaviy, Hofiz, Sa'diy singari ulug' shoirlar ijodidan bahramand bo'lgani, buyuk fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy bilan yaqin munosabatda bo'lganini iftixor ila qayd etadi.

Shoirning bu risolani bitishdan maqsadi bir tilni ikkinchisidan ustun qo'yish emasdi. Aksincha, fors va arab tillari soyasida qolib, hatto turkiy qavmga mansub shoiru hukmdorlar tomonidan ham yetarlicha e'zozlanmagan, kamsitilgan ona tilingni qadru qimmatini yuksaltirmoq edi va bunga musharraf bo'ldi.

Rustam JABBOROV

✓ Iqtisodiyot

FARG'ONADA KO'MIRDAN MUAMMO BO'LMAYDI



Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 29-sentyabrdagi «Respublika iste'molchilariga ko'mir mahsulotlarini yetkazib berish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga ko'ra, budjet tashkilotlarini ko'mir mahsulotlari bilan budjet mablag'lari hisobidan ta'minlash tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Ushbu nizomda budjet tashkilotlarining ko'mir mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish, zaruriy miqdordagi yonilg'ini hududlardagi ko'mir omborlari orqali yetkazib berish, ko'mir mahsulotlarini tashkilotlarning omborlarida saqlash va o'zaro hisob-kitob ishlarini amalga oshirish tartiblari ko'rsatib o'tilgan. Ayni kunlarda «Ko'mir ta'minot» MCHJning Farg'ona viloyat filialida ham aholiga 2022-2023-yillar kuz-qish mavsumi uchun 236 142 tonna ko'mir yetkazib berish bilan bog'liq tizimli ishlar olib borilyapti. Bugunga qadar filialga qarashli 8 ta

– Beshariq, Furqat, Qaqir, Buvayda, Bag'dod, Oltiariq, Marg'ilon va Quva ko'mir omborlari orqali ijtimoiy soha tashkilotlariga 80 854 tonna ko'mir mahsulotlari yetkazib berildi. – Maqsadimiz aholi hamda davlat tashkilotlarining ko'mirga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash, – deydi «Ko'mir ta'minot» MCHJ Farg'ona viloyat filiali rahbari Umid Ergashev. – Buning uchun viloyat hokimligi tomonidan shahar va tumanlar kesimida reja ishlab chiqilgan. Har mavsum boshida tabiiy gaz yetib bormagan hududlarda yashovchi aholi punktlarida mahallalar tomonidan ko'mirga bo'lgan ehtiyoj aniqlanadi va tegishli ro'yxat shakllantirilib, mahalliy hokimliklarga taqdim etiladi. Hokimlik ushbu ro'yxat asosida hududiy ko'mir omborlariga buyurtma beradi. Biz esa ana shu jadvalga muvofiq o'z vazifamizni ado etyapmiz.

Orif JUMANOV

✓ E'lon!

O'ZBEKISTON «MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASI MARKAZIY KENGASHI IJROIYA QO'MITASI QUYIDAGI TARG'IBOT MATERIALLARINI CHOP ETISH UCHUN TENDER E'LON QILADI.

1. Kundalik o'lchami 148*210 mm, muqovasi teri o'rnini bosuvchi, bo'rtirma, ichki bloki 80 gr, 216 sahifa, moslashtirilgan bosib chiqarish, rangi 4+4, ip bilan tikiladi, issiq yelim. Adadi – 5000 dona.
2. Partiya ramzi tushirilgan paket (qog'oz) o'lchami 250x350x70sm 210 gr/m.kv karton, rangi, 4+0, jiloli laminatsiya bilan. Adadi – 5 000 dona.
3. Partiya ko'krak nishoni. Adadi – 10 000 dona.
4. Stol taqvim bloski 240x165 mm, 4+4, 7 varaq, taglik qattiq bog'langan karton 4+0. Adadi – 5000 dona.
5. Devor taqvim, o'lchami 330x240 mm, 300 gr/m² karton, 4+0, laminatsiya bilan 2 varaq, bloski 297x420 mm, 90 gr, 4+0, 12 varaq. Adadi – 5000 dona.

Murojaat uchun telefon: 71-239-45-77

OBUNA – 2023! 2023-YIL UCHUN «MILLIY TIKLANISH» GAZETASIGA OBUNA BO'LING! Obuna indeksi 158

Adabiyot haqida faktlar

O'zbek adabiyotida yaratilgan eng birinchi she'riy roman Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni. U 5782 baytdan iborat. Zamonaviy o'zbek adabiyotida bitilgan ilk she'riy roman «Ziyod va Adiba» (Mirmuhsin).

«Aql yoshdama, boshda», deydi xalqimiz. Zero, eng iste'dodlilar katta asarlar bitishni yoshliklaridanoq boshlab yuborishgan: Usmon Nosir «Norbo'ta» asarini 20, «Naxshon»ni 22, Erkin Vohidov «Buyuk hayot tongi»ni 24, Sayyor «Boshsiz haykal» asarini 26 yoshda bitgan.

Pushkin o'z asarlarida 21197, Shekspir 20000, Servantes 18000, Abdulla To'qay 14000, Abay 6000 so'zdan foydalanishgan. Bu borada Alisher Navoiy yuqoridagilarning barchasini «dog'da» qoldirgan – o'z asarlarida 41000 dan ziyod so'zlardan foydalangan.

Sh.ISROILOV tayyorladi.



Saida ZUNNOVA

Mening Vatanim

Yuz yil umr ko'rsam,
yuz yil she'r yozsam,
yuz yil ta'rifingni
aytsam muttasil.
Baribir, sevgili
yorin rasmini
Chizmoqqa munosib
rang topolmayin
Chamanda tentirab
yurgan rassomday
Sening tasviringga
so'z axtararman.
So'zlar sarasidan
shu bugungiday
Yuz yilgi she'rimni
yig'salar hamki
Bo'lmaydi dildagi
sevgimday asl.
Ey, mening Vatanim,
mening Vatanim!
Dunyoda ne yaxshi,
Xislatlar-ki bor
Hammasi-hammasi
senda mujassam
Aziz tuprog'ingni
ko'zimga surtib
Bahorda barglarga
yuzimni surtib
Insonlik hurmati
Ichaman qasam.
Senga qurbon bo'lsa
mayli jon-tanim
Sening shoirangman
Shu ulug' elning
Baxtini ko'zlovchi
bir jigarbandi.
Adolat, erklikni
kuylaganim-chun
Quvg'indi bo'lmayman
keng quchog'ingdan,
Biz doim birgamiz,
Mening Vatanim.
To tirik ekanman,
Mehring, g'ururing
Mehnatda, rohatda
jonim payvandi,
Sen mening sevganim,
sen maqtaganim.

Mashhurlar tilidan

CHERCHILDAN EYNSHTEYNGACHA...



Britaniya parlamentida debat borardi. Uinston Cherrhill (1874-1965) konservatorlar lideri sifatida nutq so'zlab, ashaddiy raqiblaridan bo'lgan leyboristlarni bir-ikki «chaqib» oladi. Shu payt zalda o'tirgan leyboristlar faollaridan biri, ko'rimsiz va shallaqiroq ayol o'rnidan turadi va Cherrchilga baqirib beradi:

– Janob Cherrhill, jonga tegib ketdingiz. Agar men xotiningiz bo'lganimda siz ichayotgan qahvaga zahar qo'shib berardim.

Zalda o'tirganlarning ko'pchiligi kulib yuboradi. Cherrchil esa, pinagini buzmasdan, kulimsirab javob qaytaradi:

– Agar rostdan xotinin bo'lganingizda, ana shu qahvani jon-jon deb ichgan bo'lardim.

Xitoyda o'lim jazosi ko'pincha yaqin masofadan otish bilan amalga oshiriladi. Keyin

o'limga mahkum qilinganlarning qarindoshlariga 9 yuanlik hisob keladi – bu bitta o'qning narxidir. Agar o'lim jazosiga hukm qilingan kishining qarindoshi bo'lmasa, u bir muddat qamoqda ishlab, o'qning pulini ishlab topadi, shundan keyingina hukm ijro etiladi.

Qadimgi yunon faylasufi Diogendan siz qaysi davlatga tegishsiz deb so'rashganida, u o'zidan keyin ko'pchilik foydalangan mashhur javobni beradi:

«Men – tinchlik fuqarosiman».

Eynshteyndan bilimdan yuqori turuvchi narsa haqida so'rashganida esa u: «Fantaziya» deb javob bergan ekan.

Internet ma'lumotlari asosida N.RUSTAMOVA tayyorladi.

TOSHKENT XALQARO KITOB KO'RGAZMA-YARMARKASI O'TKAZILADI



«INFOLIB – 2022» XI Milliy axborot-kutubxona haftaligi va «Tashkent Book Fest» III Toshkent xalqaro kitob ko'rgazma-yarmarkasi o'tkaziladi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi telegram kanali xabar bermoqda.

Unga ko'ra, barcha kitobsevarlar, noshir va matbaachilar «Kitobsevar millat» shiori ostida 2022-yil 31-oktyabr – 4-noyabr kunlari Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi va hududiy axborot-kutubxona markazlarida an'anaviy o'tkazib kelinayotgan «INFOLIB – 2022» XI Milliy axborot-kutubxona haftaligi hamda 2-4-noyabr kunlari poytaxtimizdagi «O'ZEKSPOMARKAZ» majmuasida bo'lib o'tadigan «Tashkent Book Fest» III Toshkent xalqaro kitob ko'rgazma-yarmarkasiga taklif etilmoqda.

Unda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga bag'ishlangan tadbirlar, xorijiy va mahalliy kitob mahsulotlari bilan tanishish, yangi asarlar taqdimoti, yozuvchi, shoirlar hamda soha mutaxassislari bilan tashkil etiladigan davra suhbatlari, seminarlar, mahorat darslari va treninglar o'tkaziladi.

O'zA

CHO'LI IROQ

Tarixni so'zlama menga, ey odam, Bitta chalib bergin «Cho'li iroq»ni. Bitta chalib bergin, toki yana ham Yaxshiroq ajratay qorani, oqni.

Bu kuy asrlarning baridan tortib Cho'llarda toliqqan horg'in karvonday Ming xil taqdirlarni ustiga ortib, Qalbidan jimirlab o'tadi qonday.

Tarixning eng olis qatlamlarida Armonda uxlagan orzu-alamlar. Dunyo manglayiga ajin tushirgan, Dardni, qarilikni yaratgan g'amlar.

Sahro chechagining ayanch kulgusi, Yomg'irdan jon kirgan tuproqning isi, Hammasi o'tadi qalbimni o'yib. Tuya bo'ynidagi qo'ng'iroqlarning.

Tashnalik eslatgan jarangi bo'lib Hammasi o'tadi qalbimni o'yib. Tarixni so'zlama menga, ey odam, Bitta chalib bergin «Cho'li iroq»ni.

Bitta chalib bergin, toki yana ham Yaxshiroq ajratay qorani, oqni. Haddidan oshganga uni chalib ber, Do'stlar diyorini g'animat bilmay,

Sarobga shoshganga uni chalib ber! Chalib ber, chalib ber, andisha qilmay. O'tmishni so'zlama o'g'it kerakmas, Shu kuyini bir marta chalib bersang bas.

QALB

Har narsaga kuyma, deyishar menga, Kuymagan yurakni nima qilaman. Ortiqcha yuk qilib uni tanaga, Yonmagan yurakni nima qilaman.

Men-ku, shoir axir, har bir inson ham, Bebaxtdir qalbing qo'ri bo'lmasa. Chiroq ardoqlanmas edi dam-badam, Pirqirab yonmasa nuri bo'lmasa.

Ilm-fan

O'ZBEK OLIMINING MONOGRAFIYASI TURK TILIDA NASHR ETILDI

Taniqli navoiyshunos olim, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Olimjon Davlatovning «Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislar» nomli monografiyasi turk tiliga o'girilib, Istanbuldagi «Akademik kitaplar» nashriyoti tomonidan qarodosh kitobxonlar hukmiga havola qilindi. Ulug' shoir ijodining

mangu va barhayot sarchashmalaridan biri Qur'oni karim oyatlari va hadis sharifida aks etgan g'oyalar ekanligi ko'pchilik navoiyshunoslar tomonidan e'tirof etilgan bo'lsa-da, ushbu ilmiy muammo ilk marta O.Davlatovning tadqiqotida monografik yo'sinda tadqiq etilgani e'tiborlidir. Olimning ushbu xulosa –qarashlari

nafaqat navoiyshunoslik, balki Sharq mumtoz she'riyatini anglash va tadqiq etishda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbek tili bayrami kunlarida nashr etilgan mazkur kitob o'zbek-turk adabiyotshunoslarining ilmiy aloqalar va hamkorligi yo'lida amalga oshirilgan jiddiy qadamlardan hisoblanadi.



Saboq

OLTIN MEVA

Xitoyda bir kishi shunday och va charchagan ediki, chiday olmay bir yerdan nok o'g'irlab yedi... Odamlar og'rini ushlab, jazolash uchun imperator huzuriga olib kirishdi. O'g'ri imperatorni ko'rib, unga qarata shunday dedi:

«Hurmatli imperator, men och edim va bu ochlikka chiday olmadim, shuning uchun ham o'g'irlab yeyishga majbur bo'ldim. Meni kechirishingizni iltimos qilaman, bir qoshiq qonimdan keching-u afv eting. Agar meni kechirsangiz, siz uchun bebaho sovg'a bor. Shuni Sizga taqdim etaman».

Imperator istehzoli kuldi; «Senga o'xshagan bir kimsada mendek imperator uchun qiymatli bo'lgan nima bo'lishi mumkin?» O'g'ri kaftidagi nok urug'ini

uzatdi va dedi; «Agar siz bu urug'ni eksangiz, oltin meva beradigan daraxt bir kunda o'sib chiqishini ko'rasiz».

Imperator kulib: – Unday bo'lsa, oltin mevalarni ko'rsam, kechiraman, – dedi.

O'g'ri: «Imperator hazratlari, men bu urug'ni eka olmayman, chunki men o'g'riman. Bu urug' mening qo'llarimdan unib chiqsa-da oltin meva bermaydi. Bu urug'ni umrida hech qachon o'g'irlik qilimagan, boshqalarga nisbatan adolatsizlik qilimagan, yolg'on gapirmagan odam eksagina oltin meva beradi. Aks holda uni ekganni zaharlab, misli ko'rilmagan dard bilan o'ldiradi. Sultonim, faqat sizgina bu urug'ni eka olasiz».

Imperator qovog'ini uyib,

qoshlarini chimirdi, bir muddat o'ylab qoldi, so'ngra qo'pol ovozi bilan:

«Men bog'bon emas, imperatorman, tushundingizmi o'sha urug'ni bosh vazirga bering», – dedi.

O'g'ri urug'ni bosh vazirga uzatganda, bosh vazir vahima ichida imperatorga yuzlanib, e'tiroz bildirdi.

«Ekish va parvarishlashda men juda no'noqman hazratim, sehrlu urug'ni isrof qilamanmi deb. Menimcha, bu urug'ni xazinachi ekishi kerak».

Bosh g'aznachi darhol bahona topib, bu vazifani boshqa bировga topshirdi.

U yerda bo'lganlarning barchasi birin-ketin bahona topib urug' ekish vazifasidan qochishdi.

Keyin imperator vujudiga kelayotgan sukunatda biroq o'ylanib qoldi. U ro'parasidagi bosh vazir, g'aznachi va barcha amaldorlarga tikilib, dedi; «Keling, bu o'g'riga urug'ning oltin meva berishini va uni xursand qilishini birgalikda ko'rsatamiz», dedi.

Cho'ntagidan bir tilla tanga olib, o'g'ri ushlab oladigan tarzda iring'itdi.

So'ngra hamma sekin cho'ntagidan oltin chiqarib o'g'riga bergunicha kutib turdi.

Keyin kulib: «Yo'qol bu yerdan ey «o'g'ri», bu saboq bugun hammamizga yetarli», dedi.

Internet materiallari asosida tayyorlandi.

MILLIY TIKLANISH DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI: Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV, Abdulaziz AKKULOV, Abror PO'LATOV, Amriddin BERDIMURODOV, Akmal JUMABOYEV, Bahodir MAMATXONOV, Baxtiyor SAYFULLAYEV, Ilhom ABDULLAYEV, Ibrohim G'OFUROV, Iroda DADAJONOVA, Minhojiddin MIRZO,

Olim O'SAROV, Nodir MUXTOROV, Odiljon TOJIYEV, Otabek JIYANBOYEV, Ozodbek NAZARBEKOV, Ortiqali QOZOQOV, Feruza MUHAMMADJANOVA, Xurshid DO'STMUHAMMAD, Sherzodxon QUDRATXO'JA, Shavkat SHARIPOV, Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir: Mirodij ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Maqsud Shayxzoda ko'chasi, I A-uy. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR: Ravshan MAHMUDOV, Abdug'afur OMONBOYEV NASHR UCHUN MAS'UL: Ma'murjon YULDOSHEV NAVBATCHI: Viloyatxon SHODIYEVA DIZAYN GURUHI: Asilbek QUDRATOV, Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta: mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. Korxonada manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan. Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 5 057. Gazetaning bahosi kelishilgan narxda. Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 3 bosma taboq Buyurtma – 1016 Bosishga topshirish vaqti 21:00. Topshirildi 1:20